

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

5320900- Yengil sanoat buyumlari konsruktsiyasini ishlash va texnologiyasi (to'qimachilik sanoati) bakalavriatura ta'lim yo'nalishi bo'yicha

DIPLOM LOYIHASI

Mavzu: 10-12 tagacha "MAYER" rusumli aylana ignadonli trikotaj mashinasi o'rnatilgan korxonani loyihalash

Talaba : Sobirov Bobur

Fakultet TSTF guruh 6-12

Konsultantlar:

1. Texnologik qism: Mirusmonov.B.F
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.SH., sana va imzo)

2. Maxsus qism: Mirusmonov.B.F
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.SH., sana va imzo)

3. Mehnat muhofazasi qism: G'aniyev.T.A
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.SH. sana va imzo)

4. Iqtisod qism Yusupov. S
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.SH., sana va imzo)

5. _____
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.SH., sana va imzo)

Ilmiy rahbar Mirusmonov B.F
F.I.SH. sana imzo

Kafedra mudiri Qodirova D.N
F.I.SH. sana imzo

Toshkent – 2016 yil

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

«Tasdiqlayman»

Dekan _____

«_____» _____ 201 y.

DIPLOM LOYIHASIGA TOPSHIRIQ

Kafedra Toqimachilik matolari texnologiyasi

Kafedra mudiri _____ Qodirova D.N
(F.I.Sh va imzosi)

Raxbar _____ Mirusmonov B. F
(F.I.Sh va imzosi)

Topshiriq bajarishga qabul qilindi _____
(sana)

Talaba imzosi _____

_____ Yengil sanoat buyimlarini ish lash texnologiyasi
(ta'lim yo'nalishi)

Diplom loyihasini tayyorlash bo'yicha topshiriq?

Talaba _____ Sobirov Bobur _____ ga

1. Loyiha mavzusi 10-12 tagacha "MAYER" rusumli aylana ignadonli trikotaj mashinasi
o'rnatilgan korxonani loyixalash

institut rektorining 2015 yil «1212453-T - sonli buyrugi bilan tasdiqlangan.

2. Tugallangan diplom loyihasini ximoya qilish muddati _____

3. Loyiha bo'yicha dastlabki ma'lumotlar Berilgan mavzu bo'yicha mashina turini tanlash va
asoslash, texnologik jarayonlar ketma-ketligi, 1 yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi, asosiy
va yordamchi xonalat yuzalari hisoblandi.

4. Diplom loyihasida bajariladigan bo'limlar ro'yxati:

A) _____ Texnologik bo'lim

B) _____ Maxsus bo'lim

V) _____ Mehnat muhofazasi va ekologiya bo'limi

G) _____ Iqtisod bo'limi

5. Ko'rsatilishi shart bo'lgan chizma-geometrik materiallar ro'yxati:

Korxona loyihasi, mahsus qism _____

6. Loyihaming tegishli bo'limlar bo'yicha konsultantlari Mirusmonov B.F., G'aniyev T.,
Yusupov S

7. Topshiriq berilgan sana _____

MUNDARIJA

KIRISH	3
I TEXNOLOGIK QISM	6
I.1 Maxsulot turini tanlash va asoslash	6
I.2 Mashina turini tanlash va asoslash.....	9
I.3 To'qima turini tanlash va asoslash	10
I.4 Xom ashyo turini tanlash va asoslash.....	13
I.5 Mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlar ketma-ketligini tanlash va asoslash	16
I.6 Texnologik ko'rsatkichlar hisobi.....	19
I.7 Andozalar yuzasining hisobi	20
I.8 Bir mahsulotga ketgan hom ashyo sarfi hisobi	27
I.9 Bir yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmining hisobi.....	31
I.10 Asosiy omborxonalar va yordamchi xonalar yuzalarini hisobi.....	35
I.11 Tikuv konveyerining hisobi	39
II MAHSUS QISM.....	43
II.1 Ignadonga ip yetkazib beruvchi mexanizmning tadqiqoti.....	43
III. MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYA QISMI	48
III.1 Loyihalanayotgan korxonada mikroiklim sharoitlarining mehnat muhofazasiga ta'siri.....	48
IV. IQTISOD QISMI.....	52
IV.1 Biznes-reja bo'limlarini hisoblash.....	52
XULOSA	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	69

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: tashqi va ichki bozor iste'mol talabi va jahon "moda va dizayn" sohasi tobora rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari jahon bozorlarida trikotaj mahsulotlariga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Bu masala yuzasidan Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi bu boradagi jarayonni yanada kuchaytirish uchun yangi, yanada keng imkoniyatlar ochib berayotir. Ushbu dasturiy hujjatga muvofiq iqtisodiyotni erkinlashtirishni jadallashtirishga qaratilgan qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, iqtisodiyotimiz, shu jumladan, paxta tolasini yetishtirish hamda to'qimachilik kabi muhim tarmoqlar raqobatbardoshligini yanada oshirishga doir aniq maqsadli chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori soha rivoji uchun keng imkoniyatlar ochdi. Mazkur hujjat doirasida tasdiqlangan dasturda yangi 55 investisiya loyihasini amalga oshirish, jumladan, tugallangan ishlab chiqarish jarayoniga ega to'qimachilik kompleksini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash kerakki, eksport qilinayotgan tovarlar geografiyasi yil sayin kengayib, yangi tashqi sotish bozorlari o'zlashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar samarasida Braziliya, Bangladesh, Indoneziya, Peru, CHili, Kolumbiya, Fransiya va boshqa davlatlarga mamlakatimizda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari yetkazib berilmoqda. Buning natijasida o'tgan yili tayyor mahsulot eksporti umumiy eksport hajmining 35 foizini tashkil etdi. Bu 2011 yildagiga nisbatan 25 foiz ko'pdir. Ip va trikotaj polotno kabi yarim tayyor mahsulotlarning bir qismi ichki bozorda sotildi. Bu tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ikki barobar, paypoq buyumlari ishlab chiqarish hajmini 1,2 barobar oshirish imkonini berdi.

Trikotaj sanoati to'qimachilik sanoatida keng rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, respublikamiz mustaqillikka erishgan yildayoq bu soxaga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berildi. Natijada tarmoq rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilgan yangi texnika va texnologiyalar bilan jixozlanishi ta'minlandi. Korxonalarni bunday zamonaviy uskunalar bilan jixozlanishiga sabab respublikamizda paxta, jun, sun'iy tolali iplarni (xom-ashyo) ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lib ko'plab xom-ashyoni eksport qilmoqda. Shunga asoslangan xolda bugungi kunda davlatimiz eksportbop maxsulotlarni sifatli va raqobatbardosh qilib ishlab chiqarishni davlat korxonalari bilan birgalikda o'rta va kichik biznes subyektlarini ishtirokini ta'minlaydi.

2014 yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik ob'ekt foydalanishga topshirildi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan "2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori ushbu vazifalarni hal etishga qaratilgan. Mazkur hujjatda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash hisobidan eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularni xorijda sotish bozorlarini kengaytirish zarurligi qayd etilgan.

Trikotaj sanoatida ishlab chiqaradigan maxsulotlar turlari xilma-xildir. Masalan, xar xil turdagi paypoq maxsulotlari, ustki va ichki trikotaj kiyimlari va mebellarini qoplash uchun ishlatadigan matolar shular jumlasidandir. Trikotaj mashinalarida to'quv dastgoxlarida ishlab chiqarilayotgan matolarga o'xshash kam cho'ziluvchan yoki bo'yiga va eniga cho'zilmaydigan matolar ishlab chiqarilishi trikotaj usulining afzalliklaridan biri xisoblanadi.

Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan (paxta, jun, ipak, suniy tola) xom-ashyo maxsulotlarini tayyor maxsulot sifatida tashqariga sotilishi milliy valyuta

zaxiramizni ko'paytirishga xamda uning qadrini oshirish imkoniyatini yaratadi. Shunga asoslangan xolda, bugungi kunda trikotaj ishlab chiqarish tarmog'ini eng tez rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri xisoblanadi.

Diplom loyiha ishining asosiy maqsadi: 10-12 tagacha "MAYER" rusumli aylana ignadonli trikotaj mashinasi o'rnatilgan korxonani loyixalash. Bunda "MAYER" trikotaj to'quv dastgohlari bilan jixozlangan to'quv sexini, nuqson tekshirish bo'limi, loyihalash, pardozlash bo'limi, dam berish bo'limi, bichish sexi, tikuv bo'limlarini loyihalashdan iborat. Bundan tashqari trikotaj to'quv mashinasining ishchi a'zolarini taxlil etgan xolda hisob tushuntirish ishlari amalga oshirilib menxanizmni ishlash taxlillari amalga oshirilib loyihasi ni ishlab chiqishdan iborat.

Diplom loyiha ishining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. "MAYER" trikotaj to'quv mashinasiga to'g'ri keladigan xom ashyo turini tanlash va asoslash.
2. Loyihalanayotgan korxonada ishlab chiqariladigan trikotaj mahsulot turini tanlash va asoslash.
3. Trikotaj to'quv korxonasida qo'llaniladigan zamonaviy trikotaj to'quv mashinalarini turini tanlash va asoslash.
4. Xorijiy mamlakatlar va respublikamiz miqyosida talabgor bo'lgan trikotaj to'qimasini turini tanlash va asoslash.
5. Mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlar ketma-ketligini tanlash va asoslash

I. TEXNOLOGIK QISM

I.1. MAHSULOT TURINI TANLASH VA ASOSLASH

Trikotaj sanoati - to'qimachilik sanoati tarmogi, ya'ni trikotaj korxonalarida trikotaj polotnolar, jumladan, texnik polotnolar, paypok, buyumlari, ichki va ustki trikotaj kiyimlar, qo'lqoplar, bosh kiyimlar, sharflar hamda sanoat va tibbiyotda qo'llaniladigan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Trikotaj buyumlari ishlab chiqarishda paxta, jun va kimyoviy tolalardan tayyorlangan iplardan keng ko'lamda foydalaniladi. Bundan tashqari 18-asr oxiri va 19-asr boshlarida Buyuk Britaniya va Fransiya, 19-asr oxirlarida Rossiyada vujudga keldi.

Trikotaj ishlab chiqarish. texnikasi va texnologiyasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari polotno va paypoq ishlab chiqarish. uchun avtomatlashtirilgan uzluksiz liniyalar yaratishdan, uskunalarni yanada unumliroklari bilan almashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirishdan, organik eritgichlar qo'llab polotnolarga uzluksiz ishlov berish; turli xildagi buyumlar ishlab chiqarish bo'yicha korxonalarni ixtisoslashtirib borishdan iboratdir.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori soha rivoji uchun keng imkoniyatlar ochdi. Mazkur hujjat doirasida tasdiqlangan dasturda yangi 55 investisiya loyihasini amalga oshirish, jumladan tugallangan ishlab chiqarish jarayoniga ega to'qimachilik kompleksini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash kerakki, eksport qilinayotgan tovarlar geografiyasi yil sayin kengayib yangi tashqi sotish bozorlari o'zlashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar samarasida Braziliya, Bangladesh, Indoneziya, Peru, CHili, Kolumbiya, Fransiya va boshqa davlatlarga mamlakatimizda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari etkazib berilmoqda. Buning natijasida o'tgan yili tayyor mahsulot eksporti umumiy eksport hajmining 35 foizini tashkil etdi. Bu 2011 yildagiga nisbatan 25 foiz ko'pdir. Ip va trikotaj polotno kabi yarim

tayyor mahsulotlarning bir qismi ichki bozorda sotildi. Bu tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ikki barobar, paypoq buyumlari ishlab chiqarish hajmini 1,2 barobar oshirish imkonini berdi.

Trikotaj ishlab chiqarish tarmog'i yengil sanoat sohalari ichida eng tez rivojlanib borayotgan va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Trikotaj mahsulotlarining xilma-xilligi, betakrorligi, xususiyatlari jihatidan tengi yo'qligi ularga bo'lgan talabni yildan-yilga oshirib bormoqda. Xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda to'qimachilik sanoati tarmoqlarining ichida trikotaj ishlab chiqarish texnologiyasi o'zining unumdorligi, samaradorligi, ishlab chiqarish sharoitlari bo'yicha qulayligi bilan ajralib turadi.

Trikotaj matolarini bichishga tayyorlash jarayoni asosiy va murakkab jarayonlardan bo'lib trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonning dastlabki asosiy qismlardan biri hisoblanadi. Bu qismda ishlab chiqarish foydalaniladigan trikotaj matosi va qo'shimcha matolari ham (yoqa uchun yeng uchun) asosiy qismlardan hisoblanadi. Bu jarayonni bajarishdan maqsad mahsulot ishlab chiqarishda tanlanadigan mato eni o'lchami uzunligi tanlanib bichish uchun matoning sifati matodagi nuqsonlar foizi aniqlanib, so'ng bichishga tayyorlanadi. Bichish usulida trikotaj mahsulotlari gazlamalarni tashqi qiyofasiga qarab detallar qirqiladi va kerakli shakl berilib ular tikish jarayonida birlashtiriladi. Bu usul bilan trikotaj ustki mahsulotlari 90% ishlab chiqariladi. Bunday usulda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sezilarli miqdorda chiqindi ajraladi.

Diplom loyiha ishida 1-mahsulot sifatida trikotaj mahsulotlaridan glad to'qimasi asosida to'qib olingan erkaklar yengi uzun futbolikasi tanlab olindi.

Diplom loyiha ishida 2-mahsulot sifatida trikotaj mahsulotlaridan glad to'qimasi asosida to'qib olingan erkaklar shortigi tanlab olindi

Oldi qismi




Rasm – 1 Erkaklar yengi uzun futbolkasi




Orqa qismi

Rasm -2 Erkaklar yengi uzun futbolkasi



Oldi qismi

Rasm – 3 Erkaklar shortigi



Orqa qismi

Rasm – 4 Erkaklar shortigi

I.2. MASHINA TURINI TANLASH VA ASOSLASH

Trikotaj mashinalari va barcha trikotaj ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini kelajakda takomillashtirish imkoniyatlari juda kattadir. Bu yo'nalishda muvaffaqiyatli ish olib borish birinchi navbatda yangi trikotaj mashinalarini yaratish va ishlab chiqarish nazariyalarini mukammallashtirishdir. Mashinani turini tanlashda mashinaning ish unumdorligiga, to'qimaning to'qish imkoniyatiga ega ekanligiga katta e'tibor berish kerak.

“MAYER” aylana ignadonli trikotaj to'quv mashinasi hisoblanadi.

Bu bir ignadonli mashina bo'lib, bir qatorli o'rilishdagi trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bu mashina yengil ichki trikotaj mahsulotlari va ustki trikotaj mahsulotlari (erkaklar, ayollar, bolalar) kiyimini ishlab chiqarish maqsadida qo'llaniladi.

Mashinaning umumiy tuzilishi uchta asosiy ishchi qismdan iborat:

1. Ip bilan taminlash qismi.
2. To'qish qismi.
3. Tortish va o'rash qismi.

To'quv tizimiga olayotgan ip jamg'aruvchi moslamaga kelib, undan o'tgan tekislovchi taminlagichga keladi, unda ipning tekisligini va ipning tugunchalaridan tozalanib ignadonga beriladi. Ignadonga biriktirilgan zulflar va undagi eguvchi, ko'taruvchi, yarim tugallovchi klinlar almashtirishi natijasida to'qimani turini o'zgartirish mumkin. Asosan bu mashina ishlab chiqaradigan mahsulot turi glad to'qimasi, futer to'qimasi, press to'qimasini to'qiydi. To'quv jarayonida tilchali ignalar vertikal holatda, platinalar esa gorizantal holatda va zulflar joylashgan bo'lib xalqa hosil qilish a'zolari hisoblanadi. Mashina knopkali va dastakli harakatlantirish qurilmasiga ega. Dastakni harakatga keltirish qurilmasi mashinaning ikki tomonida o'rnatilgan. Mashinaning ish jarayoni va xalqa hosil qilish a'zolari ish faoliyati to'qish jarayonida avtomatik nazorat etish va to'xtatish qurilmalari bilan jihozlangan. Bu qurilmalar yordamida berilayotgan ip tarangligi

o'zgarganda, igna singanda, matoda nuqson sodir bo'lganda mashina avtomatik to'xtatiladi.

Bir ignadonli MAYER trikotaj to'quv mashinasi

Trikotaj ishlab chiqarish korxonalarida o'rnatilgan mashinalar turlichadir. Mashinalar turlari ishlab chiqarilayotgan assartiment va matolar turlariga qarab, doimo yangilanib turadi.

Aylana ignadonli to'quv mashinasining texnik tasnifi.

Rusumi	MAYER
Klassi	28
Ignadon diametri, mm	762
Ignalar soni	2640
Sistemalar soni	90
Ignadonning aylanish tezligi	1- 40
Mashina o'lchamlari mm:	
-balandligi	2200
-shpulyarnik diametri	3150
Mashina massasi, kg	1920
Elektrodvigatel quvvati, kv	8

I.3. TO'QIMA TURINI TANLASH VA ASOSLASH

Hozirgi kunda trikotaj tarmog'ida mashinaning texnologik imkoniyatlaridan kelib chiqib juda ko'plab trikotaj to'qima turlari yaratilmoqda.

Trikotaj to'qimalari ko'ndalangiga va bo'ylamasiga to'qilgan bo'lishi mumkin.

Ko'ndalangiga to'qilgan trikotajda halqalar qatori bir ipning ketma-ket egilishidan hosil qilinadi.

Bo'ylamasiga to'qilgan trikotajda esa halqalar qatori, parallel joylashgan tanda iplarining butun bir tizimini bir vaqtning o'zida ignaga qo'yilishi va uni egilishidan hosil qilinadi.

Diplom loyiha ishida birinchi va ikkinchi mahsulot uchun trikotaj tarmog'ida eng ko'p ishlab chiqariladigan glad to'qimasi tanlandi. Sababi to'qimani hohlagan mashina turidan foydalanib olish imkoniyati mavjud. Shuningdek to'qima tanlangan mahsulot turi uchun mos tushadi.

Barcha trikotaj to'qimalari bu klassifikatsiya asosida ikki guruhga bo'linadi:

1. Bosh to'qimalar;
2. Naqshli to'qimalar;

Bundan tashqari, trikotaj to'qimalarining birinchi guruhidan, hosilali to'qimalar guruhchasi ajratilgan.

Bosh to'qimalar - bu tekis to'qimalar bo'lib, bir xil halqalardan tashkil topgandir. Ular o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

iznаноchnaya Hosilali to'qimalar. Turli bosh to'qimalar qo'shilmasidan hosil bo'ladi. Ular ham bir va ikki qavatli to'qimalarga bo'linadi.

Bir qavatli to'qimalarga quyidagilar kiradi: a) hosilali glad; b) hosilali triko; d) hosilali atlas.

Ikki qavatli to'qimalarga quyidagilar kiradi: a) hosilali lastik (interlok); b) hosilali teskari to'qima; d) hosilali seepochka; e) hosilali triko; f) hosilali atlas.

a) Bir qavatli bosh to'qimalar:

1. Glad
2. Sepochka
3. Triko
4. Atlas

b) Ikki qavatli bosh to'qimalar:

1. Lastik
2. Teskari glad
3. Lastik seepochkasi
4. Lastik trikosi
5. Lastik atlas.

Glad to'qimasi, uning tuzilishi va xususiyatlari. Shakli va katta-kichikligi bir xil bo'lgan halqalardan tashkil topgan bir qavatli ko'ndalangiga to'qilgan trikotaj to'qimasi glad deb ataladi. Glad to'qimasining tuzilishi, halqalarining old va orqa tomonlari ko'rsatilgan. To'qimaning old tomonida, asosan, halqalar tayoqchalari ko'rinib turadi, halqa tayoqchalari platina va igna yoylari ustidan o'tib, ularni to'sib turadi. To'qimaning orqa tomonida, asosan, igna va platina yoylari ko'rinadi, ular halqa tayoqchalari ustidan o'tib, ularni to'sib turadi.

Glad to'qimasi trikotaj korxonalarida juda ko'p ishlab chiqariladi va, deyarli, barcha ichki va sport kiyimlarini, paypoq mahsulotlarini tayyorlashda keng qo'llaniladi. Glad to'qimasi quyidagi xususiyatlari va o'lchamlari bilan ajralib turadi.

Yechiluvchanlik. Glad to'qimasi juda yechiluvchan bo'ladi, bu esa uning asosiy kamchiligidir, chunki trikotaj to'qimasining pishiqligiga teskari ta'sir qiladi. Agar glad to'qimasidan to'qilgan matodan tasma shaklida kesib olib, ustki yoki pastki halqalar qatori ipining uchidan tortilsa, trikotaj halqalari ketma-ket yechilib ketadi.

Buraluvchanlik. Glad to'qimasining buraluvchanligi deb, uning chetlaridan buralish xususiyatiga aytiladi. Glad to'qimasining old tomonidan orqa tomoniga buralishi halqalar ustunchasining vertikal chizig'i bo'yicha, orqa tomonidan old tomoniga buralishi esa, gorizontal halqalar qatori chizig'i bo'yicha sodir bo'ladi.

Cho'ziluvchanlik. Bu xususiyat, trikotajga qo'yilgan kuch ta'sirida uning cho'zilishidir. Cho'ziluvchanlik glad to'qimasining ijobiy xususiyatlaridan biridir.

Zichlik. Glad to'qimasining zichligi, boshqa har qanday trikotajning zichligi kabi, gladning 50 mm li uzunligiga to'g'ri keladigan halqalar qatori soni ($R_v R_v$) va halqalar ustunchalari soni ($R_g R_g$) bo'yicha aniqlanadi.

Halqa ipi uzunligi. Trikotaj tavsifida halqadagi ip uzunligi katta ahamiyatga ega, chunki undan trikotajning zichligi, yuza zichligi, pishiqligi va cho'ziluvchanligiga bog'liqdir.


Glad to'qimasining yuza zichligi. Glad to'qimasining yuza zichligi uni hosil qiluvchi halqa ipi uzunligiga, to'qimadagi halqalar zichligiga va iplarning chiziqli zichligiga bog'liqdir.

Glad to'qimasining qalinligi. Trikotaj qalinligi M , to'qima turiga va shu trikotaj to'qimasini to'qishda ishlatilgan iplarning yo'g'onligiga bog'liqdir.

Glad to'qimasining pishiqligi. Trikotaj to'qimasining pishiqligi uning uzilish kuchi (og'irligi) bilan tavsiflanadi.

Glad to'qimasining kirishishi. Trikotaj kirishishi deb, uning eni yoki uzunligining ma'lum bir vaqt ichida yoki unga ma'lum bir ishlov berish oqibatida nisbiy o'zgarishiga aytiladi.

Hozirgi vaqtda dunyo bozorida glad to'qimasidan ishlab chiqarilayotgan ustki trikotajning yangi turlari masalan, erkaklar ko'ylaklari, ayollar bluskalari, djemperlari, poluverlar, jaketlar, sviterlar va boshqalar paydo bo'la boshladi.



Rasm-5

Glad to'qimasining old (a) va orqa (b) tomon tuzilishi

I.4. XOM ASHYO TURINI TANLASH VA ASOSLASH

O'zbekiston Respublikasi hududida hozirgi kunda paxta tolasini yetishtirish qishloq xo'jaligida asosiy o'rinlarda turadi. Chunki paxta har jihatdan eng yaxshi va to'qimachilik sohasida ko'p foydalaniladigan hom-ashyo hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermerlarni yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo'jaligi texnikasi

bilan ta'minlash hisobidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o'tish ushbu sohani barqaror va samarali rivojlantirishda eng muhim yo'nalish hisoblanadi.

To'qimachilik tolalari - arqoq va tanda iplari, g'altak ip va boshqa to'qimachilik buyumlari tayyorlashda ishlatiladigan, uzunligi ko'ndalang qesimi yuzasidan ancha katta bo'lgan, egiluvchan, ingichka va pishiq materiallar. To'qimachilik tolalari tabiiy va kimyoviy guruxlarga bo'linadi.

Tabiiy tolalar yuqori molekulali organik moddalar — o'simlik organlari va hayvonlar jini hamda momig'idan, o'simliklar urug'i (mas., paxtali chigit), poyasi (mas., zig'ir tolasi), mevasi (mas., lastochnik tolasi), ipak qurti pillalaridan olinadi. Tabiiy tolalar yuqori molekulali anorganik moddalar (mas., mineral va boshqalar)dan ham ishlab chiqariladi.

Bo'ylamasiga ajralmaydigan (yakka) To'qimachilik tolalari elementar tolalar, bir necha elementar tolalarni bo'ylamasiga biriktirib xreil qilingan To'qimachilik tolalari texnik tolalar deyiladi. Ancha uzun elementar To'qimachilik tolalari elementar iplar deb ataladi. Ba'zi To'qimachilik tolalari da kanallar bo'ladi. To'qimachilik tolalaridan, asosan, ip olinadi, undan esa gazlama, trikotaj, to'qimachilik buyumlari va boshqa narsalar tayyorlanadi. To'qimachilik tolalari orasida eng keng tarqalgani paxta tolasi hisoblanadi. Paxta tolasidan kiyimkechak, texnik mato va turlituman trikotaj, iplar, paxtadan esa momiq paxta, yigirilmaydigan materiallar va b. tayyorlanadi.

Lub tolalaridan biri — zig'ir poyasidan olinadigan tola juda ingichka, pishiq, kam cho'ziladi, gigroskopik bo'ladi. Uning ipidan qopqanor, kiyimkechak, texnik mato va boshqa gazlamalar tayyorlanadi. Dag'al poya tolasi — kanop va penkadan arqonlar, dag'al gazlamalar tayyorlanadi. Jut ham dag'al poya tolasi bo'lib, u ko'p tarqalgan, namni o'ziga yaxshi tortadi, xossasi kanopnikiga yaqin. Undan ko'proq shakar qoplari va boshqalar tayyorlanadi. Tabiiy tolalardan jun va ipak kiyimkechak va boshqalar tayyorlashda qimmatli xom ashyo hisoblanadi.

Asbest mineral To'qimachilik tolalaridan bo'lib, texnik matolar tayyorlashda, ko'pchilik sanoat tarmoklarida ishlatiladi. Tabiiy To'qimachilik tolalari sof va aralash holda, ko'pincha, shtapel tolalari bn aralashgan holda ishlatiladi. Aralash holdagisi gazlama sifatini yaxshilaydi, ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi.

To'qimachilik tolalari ichida shisha tola va iplar alohida o'rin egallaydi. Ular texnikada elektr, issikushk, tovush izolyatsiyasi va b. izolyatsiya, filtrlash (suzish) materiallari, yonmaydigan buyumlar, shishaplastiklar va boshqalarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

Mamlakatimizda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta yetishtirildi. Mamlakatimizda paxta yarmarkasini yuksak saviyada o'tkazish ham yaxshi an'anaga aylandi. O'n yildirki yarmarkada dunyoning turli mamlakatlaridan paxta va to'qimachilik sanoati vakillari, jahon bozoridagi narxlar konyunkturasini muhokama etish, O'zbekiston paxta sanoati bilan tanishish, paxta tolasi va undan tayyorlangan mahsulotlarni etkazib berish bo'yicha bevosita shartnomalar tuzish imkoniga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz seleksionerlari tomonidan 107 yangi paxta navi yaratilgan, ulardan 27 tasi davlat reestriga kiritilgan va yurtimizning turli viloyatlarida ekish uchun tavsiya qilingan. 2016 yilda O'zbekistonda paxta tolasini qayta ishlash ko'rsatkichi 60 foizga etkazish ko'zlanmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston sharoitida oliy, yaxshi, oddiy, o'rta, paxta navlari yetishtirilmoqda. Shuningdek ko'plab chet davlatlari Turkiya, Xitoy, AQSH va yana boshqa davlatlar ham bizning paxtamizga qiziqish bildirib, uni sotib olish uchun oldindan shartnoma tuzmoqdalar. Bu esa davlatimiz eksport salohiyatini yanada oshirmoqda.

Prizidentimiz boshchiliklarida paxtani qayta ishlash zavodlari qurilmoqda. Nafaqat qayta ishlash balki undan tayyor mahsulot ishlab chiqarib ichki bozorni to'ldirib bir payt o'zida tashqi bozorgaham asta sekinlik bilan bosqichma - bosqich chiqib bor-ishdir va shunday qilinmoqdaham.

Bir vaqtning o'zida mahsulotlarimiz bozorlarimizni to'ldirish bilan bir qatorda haridorlarga pishiqligi bilan va yana boshqa hususiyatlari bilan yoqish bilan bir qatorda asosiysi chet el mahsulotlaridan arzonligi bilan ham haridorlarga yoqib kelmoqda. Bizning mahsulotlarimiz chet-el mahsulotlaridan har tomonlama qolishmaydi.

Diplom loyiha ishida O'zbekistonda yetishtiriladigan va undan ishlab chiqarilgan paxta kalava ipining 20 teks tanlab olindi. Chunki bu xom ashyo o'zimizda ishlab chiqariladi va bizning issiq iqlim sharoitimizga juda mos hisoblanadi.

I.5. MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIK JARAYONLAR KETMA–KETLIKLIGINI TANLASH VA ASOSLASH

Texnologik jarayon deb to'qimachlik matolari, tolalar, kalava iplar, to'qimalar, trikotaj mato va boshqalarning hususiyatlari o'lchamlari va shakli kabi sifat ko'rsatgichlarini mexanik tasiri, havo, issiqlik, elektor, kimyoviy usullar yordamida o'zgartirishga yo'naltirilgan ishlov berishdir. Odatda texnologiyalar eski, zamonaviy va kelajakda qollaniladigan bo'lishi mumkin.

Hozirda mamlakatimizda yangi zamonaviy texnika-texnologiyalari kirib kelayotgan bo'lsda, aksariyat tarmoq korxonalarida eski texnolo'giyalar mavjuttur. Buning asosiy sabablaridan biri o'rnatishda yengil sanoat rivojiga yetarlicha diqqat e'tibor berilmaganligidir. Endilikda zamonaviy texnika- texnologiyalarga asoslangan qo'shma korxonalari barpo etib, mavjud muammolar hal ettirimoqda. Trikotaj mahsulotlari uchun texnologik zanjirining uch turi mavjud bo'lib, ular quidagilar:

- Yarim muntazam usul;
- Muntazam usul;
- Bichuvchi usul

Yarim muntazam usulda mahsulot deyarli tayyor holatda bo'lib, faqatgina ayrim qisimlarni birlashtirish natijasida tayyor mahsulot hosil bo'ladi. Bu

jarayonda asosiy ishni to'quv mashinasi bajaradi. Qolgan ishni esa tikuv bo'limida birlashtirish hisobiga olib boriladi.

Muntazam uslub. Bu uslubda mahsulotimiz tayyor holatda bo'lib, hech qanday boshqa ishlar amalga oshiradi. Bu ikki uslub o'ziga hos bo'lishi bilan bir qatorda kamchiligi ham mavjud. Bular quidagilar: ish unumdorligi past, mahsulot asartimenti kam va yanaboshqalar. Fizikani oltin qoidasidan bu "kuchdan yutqazsan, vaqtdan yutqazasan, vaqtdan yutsang, kuchdan yutqazasan" buni manosi shuki bir narsaga erishsang ikkinchisidan yutqazasan. Shuning uchun bizning sharoitimizga uchinchi uslub yani bichuv uslubi to'g'ri keladi. Bu uslubda ishlashda hom ashyo sarfi yuqorida keltirilgan ikki uslubdan ko'p bo'lib lekin assartimenti ko'pligi ish unumdorligi yuqoriligi va turli hil palatno'lardan foydalanish mumkinligi bilan ham ajralib turadi.

1. Xom-ashyo ombori. Korxonaga kelayotgan xom ashyoni qabul qilib olib ularni korxona omboridagi stilajlarga tartibli joylashtiriladi.

2. Xom ashyo loybaratoriyasi. Bu bo'limda korxonaga kelib tushgan xom ashyoni laboratoriyada tekshiruvdan o'tkazilgandan keyin nuqsonli kalava iplarni qayta o'rash ishlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari kelgan partiyadagi kalava iplarni partiyasiga qarab to'quv jarayoniga olib kirish uchun aravachalarga joylanadi.

3. To'qish. Bu jarayonda kalava iplar trikotaj to'quv mashinalarning ip ushlab turgich romlariga joylanadi va belgilangan to'qima turi to'qiladi.

4. Nuqson tekshirish. Nuqson tekshirish bo'limida to'qish sexida to'qilgan to'qimalarning nuqsonlari tekshiriladi. Ya'ni igna sinishidan, yog' tushganligidan va ipni uzilgandagi nuqsonlar tekshirilib tegishli ma'lumotnomalar to'ldiriladi.


5. Pardoqlash. Pardoqlash bo'limida olingan to'qimalarimizga har xil rangdagi pardozlar berilib ishlov beriladi. (Qaynatishda to'qima qaynatilib parafin moddasi yuvib chiqariladi. Bo'yashda to'qimaga ranglar berilib bo'yaladi. Bo'yalgan to'qimani siqish mashinalarida siqiladi. Siqilib suvi chiqarilgan to'qima

quritish jarayonida quritish mashinasida quritiladi. Quritilgan to'qimani dazmollab g'ijimligini bartaraf etish uchun kalandrlash jarayonidan o'tkaziladi.)

TRIKOTAJ MAHSULOTLARI UCHUN TEXNOLOGIK ZANJIR

KETMA-KETLIGI

Ustki trikotaj mahsulotlari uchun texnologik zanjir ketma-ketligi



6. Dam berish. Pardoqlash bo'limidan kelgan to'qimalarimizni o'zini shakliga kelib, ya'ni halqalari bir tekis bo'lib olishi uchun dam beriladi. Dam berish to'qima turiga ko'ra bir kundan uch kungacha davom etishi mumkin.

7. Bichish, butlash. Bichish va butlash bo'limida to'qimalarimiz to'shama stoliga to'shalib ustiga andozalar joylashtiriladi va chetlari chizib chiqiladi. Andozalar olinib chizilgan chiziq ustidan matoni kesuvchi asbob uskuna bilan kesib olinadi. Butlashda esa mahsulotni qismlari bo'yicha butlanadi.

8. Tikish. Bu jarayonda tikuvchi ishchilar tomonidan mahsulotni qismlari birlashtiriladi. Tayyor bo'lgan mahsulotlar qadoqlanadi va qutilarga joylashtiriladi.

9. Tayyor mahsulot ombori. Tikish sexidan kelgan qadoqlangan tayyor mahsulotlar me'yoriy xujjatlar asosida qabul kilinib olinadi. Xujjatlar tekshiriladi va saqlash tokchalariga joylashtiriladi. To'plamdagi hamma mahsulotlar yig'ilgandan keyin savdo sotiq shaxobchalariga jo'natiladi.

I.6. TEXNOLOGIK KO'RSATKICHLAR HISOBI

Glad to'qimasining texnologik ko'rsatkichlarini professor A.S.Dalidovich usulida loyihalash.

$T=20$ teks

1.Ipni qalinligi aniqlash: (mm)

$$F = \frac{\lambda}{\sqrt{\frac{1000}{T}}} = \frac{1,25}{\sqrt{\frac{1000}{20}}} = 0,17mm$$

λ — hom ashyo turiga bog'liq koeffitsiyent bo'lib, paxta uchun 1,25-teng.

2.Halqa qadami aniqlash: (mm)

$$A = k \cdot F = 4 \cdot 0,17 = 0,68mm$$

k- xom ashyo va to'qima turiga bog'liq koeffitsient.

paxta kalava uchun; $k=4$

3. Halqa balandligini aniqlash: (mm)

$$B = c \cdot A = 0,865 \cdot 0,68 = 0,58 \text{ mm}$$

c-zichliklar nisbati koeffitsiyenti $c=0,865$

4. Gorizontal bo'yocha zichlikni aniqlash: (h)

$$P_g = \frac{50}{A} = \frac{50}{0,68} = 73 \text{ halqa}$$

5. Vertikal bo'yicha zichlikni aniqlash: (h)

$$P_B = \frac{50}{B} = \frac{50}{0,58} = 86 \text{ halqa}$$

6. Halqa ipining uzunligini aniqlash : (mm)


$$\ell = \frac{78,5}{P_r} + \frac{100}{P_B} + \pi \cdot F = \frac{78,5}{73} + \frac{100}{86} + 3,14 \cdot 0,17 = 1,07 + 1,16 + 0,53 = 2,76 \text{ mm}$$

7. Trikotaj to'qimasining yuza zichligini aniqlash:

$$Q = 0,4 \cdot \frac{\ell \cdot P_r \cdot P_B \cdot T}{1000} = 0,4 \cdot \frac{2,76 \cdot 73 \cdot 86 \cdot 20}{1000} = 0,4 \cdot 346,5 = 138,5 \approx 139 \text{ gr} / \text{m}^2$$

I.7. ANDOZALAR YUZASINING HISOBI

1-Mahsulot andozalar yuzasining hisobi



Rasm-6. Mahsulotning oldi qismi

1.Old qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a * b = 50 * 45 = 2250 \text{ sm}^2$$

2.Old qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = a * b = 20 * 39 = 780 \text{ sm}^2$$

3.Old qismining S_3 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = \frac{a * b}{2} = \frac{6 * 3}{2} = 9 \text{ sm}^2$$

4.Old qismining S_4 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_4 = \frac{a * b}{2} = \frac{14 * 3}{2} = 21 \text{ sm}^2$$

5.Old qismining S_5 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_5 = \frac{a * b}{2} = \frac{15 * 2}{2} = 15 \text{ sm}^2$$

6.Old qismining S_6 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_6 = \frac{a * b}{2} = \frac{7,5 * 2}{2} = 7,5 \text{ sm}^2$$

7.Old qismining S_7 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_7 = \frac{a * b}{2} = \frac{7,5 * 2}{2} = 7,5 \text{ sm}^2$$

8.Old qismining S_8 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_8 = \frac{a * b}{2} = \frac{15 * 2}{2} = 15 \text{ sm}^2$$


9.Old qismining S_9 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_9 = \frac{a * b}{2} = \frac{14 * 3}{2} = 21 \text{ sm}^2$$

10.Old qismining S_{10} uchburchak yuzasini hisobi

$$S_{10} = \frac{a * b}{2} = \frac{6 * 3}{2} = 9 \text{ sm}^2$$

$$S_{\text{oldumumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 + S_7 + S_8 + S_9 + S_{10} = 2250 + 780 + 9 + 21 + 15 + 7,5 + 7,5 + 15 + 21 + 9 = 3135 \text{ sm}^2$$



Rasm-7. Mahsulotning orqa qismi

1. Ort qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a * b = 50 * 45 = 2250 \text{ sm}^2$$

2. Ort qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = a * e = 20 * 39 = 780 \text{ sm}^2$$

3. Ort qismining S_3 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = \frac{a * e}{2} = \frac{6 * 3}{2} = 9 \text{ sm}^2$$

4. Ort qismining S_4 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_4 = \frac{a * e}{2} = \frac{14 * 3}{2} = 21 \text{ sm}^2$$

5. Ort qismining S_5 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_5 = \frac{a * e}{2} = \frac{15 * 2}{2} = 15 \text{ sm}^2$$

6. Ort qismining S_6 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_6 = \frac{a * e}{2} = \frac{7,5 * 2}{2} = 7,5 \text{ sm}^2$$

7. Ort qismining S_7 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_7 = \frac{a * e}{2} = \frac{7,5 * 2}{2} = 7,5 \text{ sm}^2$$

8. Ort qismining S_8 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_8 = \frac{a * e}{2} = \frac{15 * 2}{2} = 15 \text{ sm}^2$$


9. Ort qismining S_9 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_9 = \frac{a * e}{2} = \frac{14 * 3}{2} = 21 \text{ sm}^2$$

10. Ort qismining S_{10} uchburchak yuzasini hisobi

$$S_{10} = \frac{a * e}{2} = \frac{6 * 3}{2} = 9 \text{ sm}^2$$

$$S_{\text{ortumumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 + S_7 + S_8 + S_9 + S_{10} = 2250 + 780 + 9 + 21 + 15 + 7,5 + 7,5 + 15 + 21 + 9 = 3135 \text{ sm}^2$$



Rasm-8. Mahsulotning yeng qismi

1. Yeng qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a * e = 55 * 26 = 1430 \text{ sm}^2$$

2. Yeng qismining S_2 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = \frac{a * e}{2} = \frac{55 * 9,5}{2} = 261,25 \text{ sm}^2$$

3. Yeng qismining S_3 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = \frac{a * e}{2} = \frac{55 * 9,5}{2} = 261,25 \text{ sm}^2$$

4. Yeng qismining S_4 uchburchak yuzasini hisobi


$$S_4 = \frac{a * e}{2} = \frac{22,5 * 9}{2} = 101,25 \text{ sm}^2$$

5. Yeng qismining S_5 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_5 = \frac{a * e}{2} = \frac{22,5 * 9}{2} = 101,25 \text{ sm}^2$$


$$S_{\text{yengumumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 = 1430 + 261,25 + 261,25 + 101,25 + 101,25 = 2155 * 2 = 4310 \text{ sm}^2$$

$$S_M = S_{\text{old umumiy}} + S_{\text{ort umumiy}} + S_{\text{yeng umumiy}} = 3135 + 3135 + 4310 = 10580 \text{ sm}^2$$



Rasm-9. Erkaklar yengi uzun futbolkasining to'shamasi

2-Mahsulot andozalar yuzasining hisobi



Rasm-10. Mahsulotning oldi qismi

1. Old qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a * b = 19,5 * 39 = 760,5 \text{ sm}^2$$


2. Old qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = a * b = 3 * 25 = 75 \text{ sm}^2$$

3. Old qismining S_3 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = \frac{a * b}{2} = \frac{14 * 3}{2} = 21 \text{ sm}^2$$

$$S_{\text{oldumumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 = 760,5 + 75 + 21 = 856,5 * 2 = 1713 \text{ sm}^2$$



Rasm-11. Mahsulotning orqa qismi

1. Ort qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a * b = 19,5 * 39 = 760,5 \text{ sm}^2$$

2. Ort qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = a * b = 3 * 25 = 75 \text{ sm}^2$$

3. Ort qismining S_3 to'rtburchak yuzasini hisobi


$$S_3 = \frac{a * b}{2} = \frac{14 * 3}{2} = 21 \text{ sm}^2$$

4. Ort qismining S_4 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_4 = \frac{a * b}{2} = \frac{22,5 * 3}{2} = 33,75 \text{ sm}^2$$

$$S_{\text{ortumumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 = 760,5 + 75 + 21 + 33,75 = 890,25 * 2 = 1780,5 \text{ sm}^2$$

$$S_M = S_{\text{old umumiy}} + S_{\text{ort umumiy}} = 1713 + 1780,5 = 3493,5 \text{ sm}^2$$



Rasm-12. Erkaklar shortigining to'shamasi

I.8. BIR MAHSULOTGA KETGAN HOM ASHYO SARFINING HISOBI

1-mahsulot uchun

1. To'shamaning yuzasining hisobi:

$$S_1 = x * (III - e) * L = 2 * (90 - 0) * 136 = 24480 \text{ sm}^2$$

x -to'shamadagi to'qimani bir yoki ikki qavatligini inobatga oluvchi ko'rsatkich;

Sh -to'shamani eni;

L - to'shama uzunligi.

2. To'shamadagi mahsulotlar andozalari yuzalari hisobi:

$$S_2 = x * S_m = 2 * 10580 = 21160 \text{ sm}^2$$

x -to'shamada joylashgan mahsulot andozalarining birlik miqdori;

S_m -andozalarning umumiy yuzasi.

3. Asosiy chiqindilar yuzasi to'shama yuzasidan umumiy mahsulot andozalari yuzasini ayirish bilan aniqlanadi.

$$S_3 = S_1 - S_2 = 24480 - 21160 = 3320 \text{ sm}^2$$

4. Qo'shimcha chiqindilar asosan tarmoq uchun me'yoriy xujjatlar qilingan koeffitsientlar yordamida aniqlanadi.

$$X_d = X_1 + X_2 + X_3 + X_4 = 2 + 0,5 + 2 + 0,25 = 4,75\%$$

X_1 -trafaret ohiri 2%

X_2 -to'qima cheti 0,5%

X_3 -loskut qoldiq 2 %

X_4 - nuqsonli to'qima 0,25%

5. Asosiy chiqindilar miqdori % hisobida

$$X_0 = \frac{S_3(100 - X_d)}{S_1} = \frac{3320(100 - 4,75)}{24480} = 12,9\%$$

6. Umumiy chiqindilar miqdori % hisobida

$$X_p = X_0 + X_d = 12,9 + 4,75 = 17,65\%$$

7. Mahsulot birligiga umumiy sarflangan to'qima yuzasining hisobi:

$$S_4 = \frac{S_M * 100 * K_y}{100 - X_p} = \frac{10580 * 100 * 0,99}{100 - 17,65} = 12719 \text{ sm}^2$$

8. Mahsulot birligiga sarflangan xom ashyo og'irlik hisobida

$$Q = \frac{S_4 * Q}{10000} = \frac{12719 * 139}{10000} = 176 \text{ gr}$$

$$Q_{TYK} = \frac{Q * 100}{100 - 0,4} = \frac{176 * 100}{100 - 0,4} = 176 \text{ gr}$$

$$Q_{\Pi AP} = \frac{Q_{TYK} * 100}{100 - 4,7} = \frac{176 * 100}{100 - 4,7} = 184 \text{ gr}$$

$$Q_{MAX} = \frac{Q_{\Pi AP} * 100}{100 - 0,5} = \frac{184 * 100}{100 - 0,5} = 185 \text{ gr}$$

2-mahsulot uchun

1. To'shamaning yuzasining hisobi:

$$S_1 = x * (III - \epsilon) * L = 2 * (90 - 0) * 126 = 22680 \text{ sm}^2$$

x -to'shamadagi to'qimani bir yoki ikki qavatligini inobatga oluvchi ko'rsatkich;

Sh -to'shama eni;

L - to'shama uzunligi.

2. To'shamadagi mahsulotlar andozalari yuzalari hisobi:

$$S_2 = x * S_m = 6 * 3493,5 = 20961 \text{ sm}^2$$

x -to'shamada joylashgan mahsulot andozalarining birlik miqdori;

S_m -andozalarning umumiy yuzasi.

3. Asosiy chiqindilar yuzasi to'shama yuzasidan umumiy mahsulot andozalari yuzasini ayirish bilan aniqlanadi.

$$S_3 = S_1 - S_2 = 22680 - 20961 = 1719 \text{ sm}^2$$

4. Qo'shimcha chiqindilar asosan tarmoq uchun me'yoriy xujjatlar qilingan koeffitsientlar yordamida aniqlanadi.

$$X_{\text{д}} = X_1 + X_2 + X_3 + X_4 = 2 + 0,5 + 2 + 0,25 = 4,75\%$$

X_1 -trafaret ohiri 2%

X_2 -to'qima cheti 0,5%

X_3 -loskut qoldiq 2 %

X_4 - nuqsonli to'qima 0,25%

5. Asosiy chiqindilar miqdori % hisobida

$$X_0 = \frac{S_3(100 - X_{\text{д}})}{S_1} = \frac{1719(100 - 4,75)}{22680} = 7,2\%$$

6. Umumiy chiqindilar miqdori % hisobida

$$X_P = X_0 + X_{\text{д}} = 7,2 + 4,75 = 11,9\% = 12\%$$

7. Mahsulot birligiga umumiy sarflangan to'qima yuzasining hisobi:

$$S_4 = \frac{S_M * 100 * K_y}{100 - X_P} = \frac{3493,5 * 100 * 0,99}{100 - 12} = \frac{345856,5}{88} = 3930,2 \text{ sm}^2$$

8. Mahsulot birligiga sarflangan xom ashyo og'irlik hisobida

$$Q = \frac{S_4 * Q}{10000} = \frac{3930,2 * 139}{10000} = 54,6 \text{ gr}$$

$$Q_{\text{ТVK}} = \frac{Q * 100}{100 - 0,4} = \frac{54,6 * 100}{100 - 0,4} = 54,8 \text{ gr}$$

$$Q_{\text{ПAP}} = \frac{Q_{\text{ТVK}} * 100}{100 - 4,7} = \frac{54,8 * 100}{100 - 4,7} = 57,5 \text{ gr}$$

$$Q_{\text{MAX}} = \frac{Q_{\text{ПAP}} * 100}{100 - 0,5} = \frac{57,5 * 100}{100 - 0,5} = 57,8 \text{ gr}$$

IUK (KRO) hisobi

Mashinalarning IUK si ularni yil davomida bekor turishlari foiziga (%) bog'liq holda aniqlanadi: $IUK = 1 - \frac{a}{100}$, $a = a_1 + a_2 + a_3 + a_4$

Bu erda: a_1 — mashinalarning kapital tamirlashda bekor turishlar foizi (%), a_2 — mashinalarni o'rta ta'mirlashda bekor turishlar foizi (%), a_3 — mashinalarni joriy ta'mirlashda bekor turishlar foizi (%) , a_4 — mashinalarni tozalash vaqtida bekor turishlar foizi(%).

Mayer trikotaj to'quv mashinasi uchun kapital ta'mirlovchi vaqt normasi 194 ishchi soatga teng. Ta'mirlash vaqt oralig'i 6 yilda 1 marta. Birgada ishchilari soni 6 kishi. Mashinaning ishlash rejimi 2 smena. Ta'mirlovchilar brigadasining ishlash rejimi 1 smena. Mashinalarning ishlash vaqti 4120 soat. Hisoblash ishlari brigada tomonidan bajariladigan ishning hajmini aniqlashdan boshlanadi. Har bir ishchi kuniga 7,41 soatdan ishlasa brigade ishchilari $6 \cdot 7,41 = 44,46$ ishchi/soat ishlaydi. Mashinalarni kapital tamirlash yiliga $\frac{194}{44,46} = 4,36$ kun sarflansa, ta'mirlovchilar brigadasi 1 –smenada $4,36 \cdot 7,41 = 32,33$ soat , 2 –smenada $4 \cdot 7,41 = 29,64$ soat ishlaydi. Demak , jami 61,97 soat ishlaydi.

$$a_1 = \frac{\text{Mashinalarning bekor turish vaqti} \cdot \text{oralig'i} \cdot 100}{\text{Mashinalar ishlash vaqti}} = \frac{61,97 \cdot 1 \cdot 100}{6 \cdot 4120} = \frac{6197}{24720} = 0,25\%$$

O'rta ta'mirlash vaqti ham kapital ta'mirlash kabi aniqlanadi.

Mayer trikotaj to'quv mashinasi uchun o'rta ta'mirlash vaqti normasi 100 ishchi soatiga teng. Ta'mirlash vaqti oralig'i 1 yilda 1 marta. Mashinalarni o'rta ta'mirlash yiliga $\frac{100}{29,64} = 3,37$ kun sarflansa, ta'mirlovchilar $3,37 \cdot 7,41 = 24,97$ soat ishlaydi.

$$a_2 = \frac{\text{Mashinalarning bekor turish vaqti} \cdot \text{oralig'i} \cdot 100}{\text{Mashinalar ishlash vaqti}} = \frac{24,97 \cdot 1 \cdot 100}{1 \cdot 4120} = \frac{24,97}{4120} = 0,6\%$$

Mashinalarni joriy ta'mirlash vaqtida bekor turishlar foizi 1-3% oraliqda olinadi. Mashinalrni ishlash holatidan kelib chiqib, $a_3 = 2\%$ olamiz.

Mashinalarni tozalash vaqtida bekor turishi ularning texnologik holatini hisobga olgan holda, har 3 oyda 1 marta, 1 oyda 1 marta, yoki haftada 1 marta o'tkazilishi mumkin.

Agar mashinalar 3 oyda 1 marta tozalansa, ularni tozalashga $2 \div 4$ soat vaqt ketsa, bekor turishlar foizi $a_4 = \frac{3 \cdot 1 \cdot 100}{3 \cdot 343} = 0,29\%$ ga teng bo'ladi. Demak $a = 0,25 + 0,6 + 2 + 0,29 = 3,14\%$.

$$IUK(KRO) = 1 - \frac{a}{100} = 1 - \frac{3,14}{100} = 1 - 0,0314 = 0,97 \text{ ga teng}$$

I.9. BIR YILLIK MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HAJMINING HISOBI

**Mayer mashinasida erkaklar yengi uzun futbolikasi uchun meyorlash kartasi
hisobi**

Meyorlash kartasi quyidagi tartibta hisoblanadi:

1-assortiment uchun:

1. Mashinaning nazariy ish unumdorligi hisoblanadi.

$$A_1 = \frac{T \cdot u \cdot n \cdot m \cdot l}{1000 \cdot N \cdot 1000} = \frac{60 \cdot 2640 \cdot 35 \cdot 90 \cdot 2,76}{1000 \cdot 50 \cdot 1000} = \frac{1377130}{50000} = 27 \text{ kg/soat.}$$

2. Mashina vaqti ko'rsatkichi hisoblanadi. $t_M = \frac{T_{CM}}{A_t} = \frac{3600}{27} = 133 \text{ sek.}$

3. Mashinalarga xizmat ko'rsatish normasi hisoblanadi.

$$H_0 = \frac{t_m + t_{vn}}{t_n + t_{vn}} \cdot K_z = \frac{133 + 33}{8 + 33} \cdot 0,65 = \frac{166}{41} \cdot 0,65 = 2,6 \text{ biz qabul qilamiz 2 ta}$$

4. To'quvchining har bir mashinada band bo'lish koeffitsientini hisblaymiz.

$$K_z = \frac{t_n + t_{vn}}{(t_m + t_{vn}) \cdot K_z} = \frac{8 + 33}{(133 + 33) \cdot 0,65} = \frac{41}{108} = 0,38$$

5. To'quvchining dastgoxlarga xizmat ko'rsatish normasi va har bir mashinada band bo'lish koeffitsientini interpolatsiyalab, K_s koeffitsientni topamiz. $K_s = 1,1$

6. Mashina vaqtini operativ vaqtdagi ulishini ifodalovchi K_a koeffitsientini topamiz.

$$K_a = \frac{t_m}{(t_m + t_{vn}) \cdot K_s} = \frac{133}{(133 + 33) \cdot 1,1} = \frac{133}{183} = 0,72$$

7. Operativ vaqtning ish smenasi davomidagi ulishini ifodalovchi K_b koeffitsientni hisoblaymiz.

$$K_b = \frac{T_{sm} - T_b}{T_{sm}} = \frac{28000 - 1000}{28800} = \frac{27800}{28800} = 0,96$$

8. Vaqtdan foydalanish koeffitsientini aniqlaymiz.

$$KPV = K_a \cdot K_b = 0,72 \cdot 0,96 = 0,69$$

9. Mashinaning amaliy ish unumdorligi.

$$N_m = A_t \cdot KPV = 27 \cdot 0,69 = 18 \text{ kg/soat}$$

10. To'quvchining mahsulot ishlab chiqarish normasi.

$$N_v = N_m + N_0 = 18 \cdot 2 = 36 \text{ kg/soat}$$

YILLIK MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HAJMI HISOBI

1-assortiment uchun :

1. Bir yilda ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi;

$$B_{kg.yil} = M_3 \cdot H_M \cdot T_{yil} \cdot KPO = 5 \cdot 18 \cdot 4120 \cdot 0,97 = 359676 \text{ kg / yil}$$

M_z - o'rnatilgan mashinalar soni-5 ta

N_m - mashinaning bir soatdagi ish unumdorlik normasi-18 kg/soat

T_{yil} - bir yildagi ish vaqti soatda-4120 soat

KRO -ishlayotgan uskunalar koeffitsient-0,97

2. Bir kunda ishlatiladigan xom ashyo hajmi, og'irlik hisobida

$$B_{kg.kun} = \frac{B_{kg.yil}}{278} = \frac{359676}{278} = 1294 \text{ kg / kun}$$

3. Bir smenada kerak bo'ladigan xom ashyo hajmi, og'irlik hisobida

$$B_{kg.sm} = \frac{B_{kg.kun}}{2} = \frac{1294}{2} = 647 \text{ kg / soat}$$

4. Bir yilda ishlab chiqariladigan mahsulotlar donadagi miqdori

$$B_{dona.yil} = \frac{B_{kg.yil}}{Q_M} = \frac{359676}{0,185} = 1944195 \text{ dona / yil}$$

5. Bir kunda ishlab chiqariladigan mahsulotlar donadagi miqdori

$$B_{dona.kun} = \frac{B_{dona.yil}}{278} = \frac{1944195}{278} = 6994 \text{ dona / kun}$$

6. Bir smenada ishlab chiqariladigan mahsulotlar donadagi miqdori

$$B_{dona.sm} = \frac{B_{dona.kun}}{2} = \frac{6994}{2} = 3497 \text{ dona / soat}$$

7. Mashinalar sonini aniqlaymiz

$$M_3 = \frac{B_{kg.yil}}{H_M * T_{yil} * KPO} = \frac{359676}{18 \cdot 4120 \cdot 0,97} = \frac{359676}{71935,2} = 5 \text{ dona}$$

Aniqlangan mashinalar soni butun hamda to'quvchi tomonidan boshqariladigan me'yoriy son inobatga olinishi zarur.

Mayer mashinasida erkaklar shortigi uchun meyorlash kartasi hisobi

Meyorlash kartasi quyidagi tartibta hisoblanadi:

2-assortiment uchun:

1. Mashinaning nazariy ish unumdorligi hisoblanadi.

$$A_1 = \frac{T \cdot u \cdot n \cdot m \cdot l}{1000 \cdot N \cdot 1000} = \frac{60 \cdot 2640 \cdot 25 \cdot 90 \cdot 2,76}{1000 \cdot 50 \cdot 1000} = \frac{983664}{50000} = 19,6 \text{ kg/soat.}$$

2. Mashina vaqti ko'rsatkichi hisoblanadi. $t_M = \frac{T_{CM}}{A_t} = \frac{3600}{19,6} = 184 \text{ sek.}$

3. Mashinalarga xizmat ko'rsatish normasi hisoblanadi.

$$H_0 = \frac{t_m + t_{vn}}{t_n + t_{vn}} \cdot K_z = \frac{184 + 46}{12 + 46} \cdot 0,65 = \frac{230}{58} \cdot 0,65 = 2,5 \text{ biz qabul qilamiz 2 ta}$$

4. To'quvchining har bir mashinada band bo'lish koeffitsientini hisblaymiz.

$$K_z = \frac{t_n + t_{vn}}{(t_m + t_{vn}) \cdot K_z} = \frac{12 + 46}{(184 + 46) \cdot 0,65} = \frac{58}{150} = 0,38$$

5. To'quvchining dastgoxlarga xzmat ko'rsatish normasi va har bir mashinada band bo'lish koeffitsientini interpolatsiyalab, K_s koeffitsientni topamiz. $K_s = 1,01$

6. Mashina vaqtini operativ vaqtdagi ulishini ifodalovchi K_a koeffitsientini topamiz.

$$K_a = \frac{t_m}{(t_m + t_{vn}) \cdot K_s} = \frac{184}{(184 + 46) \cdot 1,01} = \frac{184}{232} = 0,79$$

7. Operativ vaqtning ish smenasi davomidagi ulishini ifodalovchi K_b koeffitsientni hisoblaymiz.

$$K_b = \frac{T_{sm} - T_b}{T_{sm}} = \frac{28000 - 900}{28800} = \frac{27900}{28800} = 0,97$$

8. Vaqtdan foydalanish koeffitsientini aniqlaymiz.

$$KPV = K_a \cdot K_b = 0,79 \cdot 0,97 = 0,77$$

9. Mashinaning amaliy ish unumdorligi.

$$N_m = A_t \cdot KPV = 19,6 \cdot 0,77 = 15,3 \text{ kg/soat}$$

10. To'quvchining mahsulot ishlab chiqarish normasi.

$$N_v = N_m + N_0 = 15,3 \cdot 2 = 30,6 \text{ kg/soat}$$

YILLIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH HAJMI HISOBI

2-assortiment uchun :

1. Bir yilda ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi;

$$B_{kg.yil} = M_3 \cdot H_M \cdot T_{yil} \cdot KPO = 5 \cdot 15,3 \cdot 4120 \cdot 0,97 = 305725 \text{ kg / yil}$$

M_z - o'rnatilgan mashinalar soni-5 ta

N_m - mashinaning bir soatdagi ish unumdorlik normasi-15,3 kg/soat

T_{yil} - bir yildagi ish vaqti soatda-4120 soat

